MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

"SHAXS INTEGRATIV RIVOJLANISHI PARADIGMASIDA ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI"

"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ В ПАРАДИГМЕ ИНТЕГРАТИВНОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ"

"CURRENT PROBLEMS OF MODERN PSYCHOLOGY IN THE PARADIGM OF INTEGRATIVE PERSONAL DEVELOPMENT"

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

2026-yil 22-Aprel

“Shaxs integrativ rivojlanishi paradigmasida zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari”

UO‘K: 152.3

“Shaxs integrativ rivojlanishi paradigmasida zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami (22-aprel 2026-yil) – T.: Toshkent 2026. 2005-b.

Mazkur to‘plamga 2026-yil 22-aprel kuni O‘zMPU Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta’lim fakulteti “Psixologiya” kafedrasida “Shaxs integrativ rivojlanishi paradigmasida zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilarining ma’ruza materiallari kiritilgan. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plamida psixologiya sohasidagi respublikamizdagi taniqli olim va mutaxassislar, o‘rta umumta’lim maktablarining o‘qituvchilari, tadqiqotchilar, magistrlar hamda iqtidorli talabalarning amaliy psixologiya, shaxs integrativ rivojlanishi paradigmasida zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammosi va uning yechimlari bo‘yicha yangicha yondashuvlar, amaliy yechimlarga bag‘ishlangan maqolalari o‘rin olgan.

Ma’sul muharrir:	***Tillashayxova X.A.***	*Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Psixologiya”kafedrasi v.b professori, psixol.f.d.*
Tahrir hay’ati a’zolari:	***Akramova F.A***	*Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Psixologiya”kafedrasi professori psixol.f.d.*
	Juraeva S.N	*Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Psixologiya”kafedrasi professori psixol.f.d.*
	Abdullayeva R.M.	*Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Psixologiya”kafedrasi dotsenti, psixol.f.n.*
	Jurakulova D.Z	*Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Psixologiya”kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori*
	Konratbaeva A.B.	*Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Psixologiya”kafedrasi o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori*
Texnik ma’sul:	***Toshmatov B.E.***	*Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Psixologiya”kafedrasi katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori*
	Teshayev S.S.	*Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Psixologiya”kafedrasi o‘qituvchisi*
Taqrizchilar:	***Mirzayeva F.O.***	*Nizomiy nomidagi O‘zMPU Pedagogika”kafedrasi mudiri, p.f.d ., professor*
	Narmetova Yu.K.	*Toshkent davlat tibbiyot universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti psixol.f.d*

To‘plamga kiritilgan maqola va tezislardagi dalil, raqam va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’uldirlar.

Anjuman materiallari O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2026 yil 24-apreldagi 4-sonli bayoni bilan nashrga tavsiya etilgan.

TALABA SHAXSIY XUSUSIYATLARI VA IJTIMOIY STATUSI O‘RTASIDAGI O‘ZARO ALOQADORLIGI NATIJALARI

Haydarova Sarvinoz Saydullayevna
Termiz davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
99 427 89 03 hsarvinoz52@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalalar guruhidagi ijtimoiy psixologik jarayonlar hamda talabalarning gruhdagi statusiga ta’sir qiluvchi shaxsiy va psixologik sifatlarning o‘zaro aloqadorligi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: status, yetakchilikqobiliyati, hukumronlik, o‘ziga ishonch, tob’elik mustaqillik, ekstrovert, introvert.

Kirish. Tadqiqotning maqsadi oliy o‘quv yurtlari talabalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsning guruh ichidagi va ijtimoiy holati haqidagi g‘oyalarining tuzilishi va o‘ziga xosligini aniqlash edi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy psixologiya oliy kasbiy ta’lim tizimidagi talabalar guruhlarini o‘rganishga katta qiziqish bildirmoqda. Tadqiqotchilar ushbu guruhlarning uning ishtirokchilari uchun yuqori dolzarbligini, ayniqsa, guruh ichidagi shaxslararo munosabatlarning muhimligini ta’kidlaydilar[4,89b]. Shaxslararo munosabatlarning subyekti bo‘lgan har bir shaxs odamlar o‘rtasidagi subyekttiv tajribali aloqalar va munosabatlar sifatida, odamlarning birgalikdagi faoliyati va ularning muloqoti mazmuni bilan belgilanadigan shaxslararo munosabatlar, yo‘nalishlar, kutishlar tizimi sifatida kiradi [5,121b]. Turli ijtimoiy shakllanishlarda, shu jumladan, kichik ijtimoiy guruhlarda. Kichik ijtimoiy guruhlardagi munosabatlar birgalikdagi faoliyatning samaradorligiga, muloqot jarayonining tabiatiga ta’sir qiladi va selektivlik va hissiy ohanglar bilan tavsiflanadi [3,132b]. Talabalarning guruhdagi statusining psixologik jihatdan o‘rganilishiga doir tadqiqotlar uzoq xorij va qo‘shma shtatlarda tadqiq etilgan. Galina Mixaylovna Andreyeva - sovet va rus ijtimoiy psixologi va sotsiologi guruhni subyektlari

ma’lum umumiy xususiyatlar, shu jumladan birgalikdagi faoliyatning tabiati bilan birlashtirilgan shaxs sifatida belgilaydi. [1,145b]. Artur Aleksandrovich Rean - rus psixologi va Yakov Lvovich Kolominskiy ijtimoiy psixologiyada olingan ma’lumotlar statuslar farqlarini aniqlashning yaxlit rasmini yaratadi. Talabalarning muloqot subyektlari sifatidagi xususiyatlarini rivojlanishning ijtimoiy holati nuqtai nazaridan talqin qilish mumkin. Talabalik davri etakchi faoliyatning o‘zgarishi, ijtimoiy maqomning o‘zgarishi, yoshlarning yangi ijtimoiy rolga kirishi bilan tavsiflanadi G.M.Andreeva guruhni subyekttlari ma’lum umumiy xususiyatlar, shu jumladan birgalikdagi faoliyatning tabiati bilan birlashtirilgan shaxs sifatida belgilaydi. Shunday qilib, guruh - bu odamlar jamoasi bo‘lib, u quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: birgalikdagi faoliyat, tuzilish, rivojlanish darajasi va boshqalar faoliyati guruh ichidagi dinamika jarayonlari, bir-birining subyekttlarini idrok etish bilan o‘zaro bog‘liqdir. [2,151b] Guruhlar va birgalikdagi faoliyat muammolari an’anaviy ravishda ijtimoiy psixologiyada ko‘rib chiqiladi.Ammo ko‘plab masalalar, jumladan, shaxs va guruhning o‘zaro ta’sir mexanizmlari muammosi keyingi tadqiqotlarni talab qiladi. Shaxslararo o‘zaro ta’sirning muhim xususiyatlaridan biri - bu shaxsning guruhdagi yoki maqomdagi pozitsiyasi, bu shaxsning shaxslararo munosabatlar tizimidagi mavqeyini va uning guruh a’zolari tomonidan "psixologik maqbulligi" o‘lchovini bildiradi. [6,72 b] Buni shaxsning kommunikativ faoliyati muvaffaqiyatining etarlicha obyektiv ko‘rsatkichi deb hisoblash mumkin.

Olib borilgan tadqiqot ishimiz davomida qo‘llanilgan metodikalardan olingan natijalarga ko‘ra talabalarning guruhdagi statusiga ta’sir etuvchi psixologik determinantlarni aniqlab oldik. Olingan ma’lumotlarning tahliliga aloqador ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi korrelatsion aloqadorlikni aniqlashni amalga oshirdik. Tadqiqot ishimizning asosiy metodikamiz E.Jarikov va E. Krushelnitskiyning “Yetakchilik qobiliyatlarining diagnostikasi”metodikasi sotsio R.B.Kettellning «Shaxsning 16 omil yordamida o‘rganish so‘rovnomasi» metodikasi shkallari bilan bog‘likligini Spirmen-r mezonidan foydalanib o‘rgandik.

1- jadval

E.Jarikov va E. Krushelnitskiyning “Yetakchilik qobiliyatlarining diagnostikasi”metodikasi. R.B.Kettellning «Shaxsning 16 omil yordamida o‘rganish so‘rovnomasi» o‘rtasidagi bog‘liqlik (N=450)

Omillar	**Yetakchilik qobilyati**
Muloqotga moyillik	0,429**
Hissiy barqarorolik va beqarorlik	-0,335**
Hukumronlikka intilish tobelik	0,498**
Ijtimoiy yetuklik onglilik	0,256
Ijtimoiy mardlik	0,501*
Ishonuvchanlik - shubhalanish	0,256
O‘ziga ishonch - ishonmaslik	0,305**
Mustaqillik - tob’elik	-0,256**
O‘zini nazorat qilish	0,445
Qo‘zg‘aluvchanlik zo‘riqish	0,409*

Izoh: *p≤0,01; **p≤0,01.

Asosiy metodikamiz yetakchilik qobiliyatining shakllanishida bir qator shaxsiy xususiyatlarning musbat roli kuzatildi. Natijalarga ko‘ra, yetakchilik ko‘rsatkichlari eng avvalo ijtimoiy mardlik (r = 0,501*), hukumronlikka intilish (r = 0,498**), muloqotga moyillik (r = 0,429**), sotsio o‘zini nazorat qilish (r = 0,445) kabi omillar bilan bog‘liqligi aniqlandi. Ushbu natija yetakchilikning psixologik negizini

tashkil etuvchi dadillik, tashabbuskorlik, muloqotchanlik, mas'uliyatlilik va o'z xulqini boshqarish qobiliyatlari rahbarlik faoliyatining ajralmas komponentlari ekanini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, o'ziga ishonch (r = 0,305**), ijtimoiy yetuklik (r = 0,256) sotsio ishonuvchanlik (r = 0,256) ko'rsatkichlari yetakchilik bilan ijobiy yo'nalishda bog'liq bo'lib, bu shaxsning o'z imkoniyatlariga ishonishi, atrofdagilar bilan hamkorlikka kirishish qobiliyati sotsio ijtimoiy mas'uliyat yetakchilikning qo'shimcha psixologik omillari sifatida namoyon bo'lishini bildiradi. Qo'zg'aluvchanlik–zo'riqish (r = 0,409*) omilining musbat bog'lanishi esa energiyali va tashabbuskor shaxslarning rahbarlik roliga ko'proq intilishini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalarida yetakchilik qobiliyati bilan ayrim omillar o'rtasida teskari bog'liqliklar ham aniqlangan. Jumladan, hissiy beqarorlik (r = –0,335**) shaxsning yetakchilik qobiliyatini sezilarli darajada susaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ldi. Bu emotsional barqarorlikning rahbarlik faoliyatida muhim o'rin tutishini, stressga chidamli, hissiy jihatdan muvozanatli shaxslarning boshqaruv vazifalarida samaraliroq faoliyat yuritishini ko'rsatadi. Shuningdek, mustaqillik–tobelik omili (r = –0,256**) bilan teskari bog'liqlik kuzatildi. Mazkur natija o'z fikriga ega bo'lish, qaror qabul qilishda qat'iyatlilik va mustaqil harakat qilish yetakchilik qobiliyatini kuchaytirishini, tobelikka moyillik esa aksincha, yetakchilik potensialini kamaytirishini anglatadi. Tadqiqotimiz davomida E.Jarikov va E.Krushelnitskiyning "Yetakchilik qobiliyatlarining diagnostikasi" metodikasi. va G.Ayzenk "Temperamentni aniqlash metodikasi o'rtasida korrelatsion aloqadorlik bog'liqlik kuzatildi.

2-jadval

E.Jarikov va E.Krushelnitskiyning "Yetakchilik qobiliyatlarining diagnostikasi"metodikasi. va G.Ayzenk "Temperamentni aniqlash" metodikasi o'rtasidagi bog'liqlik (N=450)

Omillar	Yetakchilik qobilyati
Ishonchlilik darajasi	0,433**
Ekstrovertlik introvertlik	0,474**
Emotsional barqarorlik	0,501**

Tadqiqot natijalari yetakchilik qobiliyatlari bilan shaxsning temperament xususiyatlari o'rtasida ijobiy va statistik jihatdan ishonchli bog'liqlik (r = 0,433) mavjudligini ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, temperament yetakchilik qobiliyatlarining shakllanishi va namoyon bo'lishida muhim omildir.Bunday shaxslar guruhda qaror qabul qilishda faol bo'lib, boshqalarning ishonchini qozonishga moyil bo'ladilar. Ekstrovertlik–introvertlik va yetakchilik qobiliyati (r= 0,474) ekstrovertlik darajasi oshgan sari yetakchilik qobiliyatlari ham kuchayishini ko'rsatadi. Ekstrovert shaxslar ijtimoiy faol, muloqotga ochiq, tashabbuskor bo'lishi sababli yetakchilik rollarini egallashga ko'proq moyil bo'ladilar. Introvert shaxslar esa yetakchilikni ko'proq yashirin yoki vaziyatga mos tarzda namoyon etishi mumkin. Emotsional barqarorlik va yetakchilik qobiliyati (r = 0,501) Bu ko'rsatkich jadvaldagi eng yuqori bog'liqlik bo'lib, emotsional barqarorlik yetakchilik uchun muhim psixologik omil ekanligini tasdiqlaydi. Emotsional jihatdan barqaror shaxslar stressli vaziyatlarda o'zini nazorat qila oladi, mantiqiy qarorlar qabul qiladi va guruh a'zolariga psixologik tayanch bo'la oladi. Shu sababli ular samarali yetakchi sifatida qabul qilinadi.

tashkil etuvchi dadillik, tashabbuskorlik, muloqotchanlik, mas'uliyatlilik va o‘z xulqini boshqarish qobiliyatlari rahbarlik faoliyatining ajralmas komponentlari ekanini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, o‘ziga ishonch (r = 0,305**), ijtimoiy yetuklik (r = 0,256) sotsio ishonuvchanlik (r = 0,256) ko‘rsatkichlari yetakchilik bilan ijobiy yo‘nalishda bog‘liq bo‘lib, bu shaxsning o‘z imkoniyatlariga ishonishi, atrofdagilar bilan hamkorlikka kirishish qobiliyati sotsio ijtimoiy mas'uliyat yetakchilikning qo‘shimcha psixologik omillari sifatida namoyon bo‘lishini bildiradi. Qo‘zg‘aluvchanlik–zo‘riqish (r = 0,409*) omilining musbat bog‘lanishi esa energiyali va tashabbuskor shaxslarning rahbarlik roliga ko‘proq intilishini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalarida yetakchilik qobiliyati bilan ayrim omillar o‘rtasida teskari bog‘liqliklar ham aniqlangan. Jumladan, hissiy beqarorlik (r = –0,335**) shaxsning yetakchilik qobiliyatini sezilarli darajada susaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ldi. Bu emotsional barqarorlikning rahbarlik faoliyatida muhim o‘rin tutishini, stressga chidamli, hissiy jihatdan muvozanatli shaxslarning boshqaruv vazifalarida samaraliroq faoliyat yuritishini ko‘rsatadi. Shuningdek, mustaqillik–tobelik omili (r = –0,256**) bilan teskari bog‘liqlik kuzatildi. Mazkur natija o‘z fikriga ega bo‘lish, qaror qabul qilishda qat'iyatlilik va mustaqil harakat qilish yetakchilik qobiliyatini kuchaytirishini, tobelikka moyillik esa aksincha, yetakchilik potensialini kamaytirishini anglatadi. Tadqiqotimiz davomida E.Jarikov va E.Krushelnitskiyning "Yetakchilik qobiliyatlarining diagnostikasi" metodikasi. va G.Ayzenk "Temperamentni aniqlash metodikasi o‘rtasida korrelatsion aloqadorlik bog‘liqlik kuzatildi.

2-jadval

E.Jarikov va E.Krushelnitskiyning "Yetakchilik qobiliyatlarining diagnostikasi"metodikasi. va G.Ayzenk "Temperamentni aniqlash" metodikasi o‘rtasidagi bog‘liqlik (N=450)

Omillar	**Yetakchilik qobilyati**
Ishonchlilik darajasi	0,433**
Ekstrovertlik introvertlik	0,474**
Emotsional barqarorlik	0,501**

Tadqiqot natijalari yetakchilik qobiliyatlari bilan shaxsning temperament xususiyatlari o‘rtasida ijobiy va statistik jihatdan ishonchli bog‘liqlik (r = 0,433) mavjudligini ko‘rsatadi. Bu shuni anglatadiki, temperament yetakchilik qobiliyatlarining shakllanishi va namoyon bo‘lishida muhim omildir.Bunday shaxslar guruhda qaror qabul qilishda faol bo‘lib, boshqalarning ishonchini qozonishga moyil bo‘ladilar. Ekstrovertlik–introvertlik va yetakchilik qobiliyati (r= 0,474) ekstrovertlik darajasi oshgan sari yetakchilik qobiliyatlari ham kuchayishini ko‘rsatadi. Ekstrovert shaxslar ijtimoiy faol, muloqotga ochiq, tashabbuskor bo‘lishi sababli yetakchilik rollarini egallashga ko‘proq moyil bo‘ladilar. Introvert shaxslar esa yetakchilikni ko‘proq yashirin yoki vaziyatga mos tarzda namoyon etishi mumkin. Emotsional barqarorlik va yetakchilik qobiliyati (r = 0,501) Bu ko‘rsatkich jadvaldagi eng yuqori bog‘liqlik bo‘lib, emotsional barqarorlik yetakchilik uchun muhim psixologik omil ekanligini tasdiqlaydi. Emotsional jihatdan barqaror shaxslar stressli vaziyatlarda o‘zini nazorat qila oladi, mantiqiy qarorlar qabul qiladi va guruh a'zolariga psixologik tayanch bo‘la oladi. Shu sababli ular samarali yetakchi sifatida qabul qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Андреева Г.М. Социальная психология. М.: Аспект Пресс, 2009. 384 с.

2. Донцов А.И. Социальная психология групп. / Вестник Московского унта. Сер.14.Психология. 1997. №4. С. 17-25.
3. Реан А.А., Коломинский Я.Л. Социальная педагогическая психология. СПб.: ЗАО Питер, 1999. 416 с.
4. Иванова В.М. Социально-психологические механизмы формирования корпоративной культуры студентов высшего учебного заведения // Инженерный вестник Дона, 2012, №4 URL: ivdon.ru/magazine/archive/n1y2009/250/.
5. Кондратьев М.Ю., Емельянова Е.В. Социально-психологические особенности взаимосвязи самооценки и личностно-ролевой взаимопредставленности студентов // Социальная психология и общество. 2011. №1. С. 56-73.
6. Ларина Т.Н., Елисеев И.Н. Оценка уровня компетенций студента на основе модели Раша // Инженерный вестник Дона, 2012, №4 URL: ivdon.ru/magazine/archive/n1y2009/250.

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA BILISH JARAYONLARINING AHAMIYATI

Jumanazarova Asaloy Azamat qizi
Urganch davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida bilish jarayonlari — idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutqning nazariy asoslari hamda ularning o‘quv faoliyatidagi ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy tilni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishda psixologik mexanizmlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni yoritiladi. Tadqiqot davomida kognitiv yondashuv asosida bilish jarayonlarini rivojlantirish metodlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xorijiy til, bilish jarayonlari, idrok, xotira, tafakkur, diqqat, nutq, psixolingvistika, metodika, kognitiv yondashuv.

Zamonaviy globallashuv sharoitida xorijiy tillarni bilish nafaqat kommunikativ ehtiyoj, balki shaxsning intellektual rivojlanishi, kasbiy muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuvining muhim omiliga aylandi. Ayniqsa, O‘zbekiston ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Xorijiy tilni o‘rganish murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u insonning bilish faoliyatiga bevosita bog‘liq. Tilni egallash jarayonida o‘quvchilar yangi lingvistik birliklarni idrok etadi, ularni xotirada saqlaydi, tafakkur orqali qayta ishlaydi va nutq faoliyatida qo‘llaydi.

Psixologiya fanida bilish jarayonlari insonning tashqi olamni aks ettirish va anglash mexanizmlari sifatida talqin qilinadi. Ushbu jarayonlarning rivojlanish darajasi xorijiy tilni o‘zlashtirish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bilish jarayonlari - bu insonning borliqni aks ettirish, uni tushunish va qayta ishlashga qaratilgan psixik faoliyatidir. Ular quyidagi asosiy komponentlardan iborat: sezgi, idrok, xotira, tafakkur, diqqat, nutq, xayol. Mazkur jarayonlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, yagona tizim sifatida faoliyat yuritadi. Masalan, idrok orqali olingan ma’lumot xotirada saqlanadi, tafakkur orqali qayta ishlanadi va nutqda ifodalanadi. Bilish jarayonlari quyidagi xususiyatlarga ega:

- **faollik** – inson faol ravishda ma’lumotni qabul qiladi
- **tanlovchanlik –** diqqat orqali muhim axborot ajratiladi
- **uzviylik** – jarayonlar bir-birini to‘ldiradi
- **individuallik** – har bir shaxsda o‘ziga xos rivojlanadi.

	MUNDARIJA	
	KIRISH	
1	***Akramova.F.A.*** *Оилага психологик хизмат кўрсатишнинг асосий муаммолари*	3
2	***Жолдошева.А.О.*, Турдуева Д.К.** *Насилие в семье и его последствия*	7
3	***Бегматов.А.С.*** *Интегратив таълим- шахс шаклланишининг пойдевори*	12
4	***Абдурашитов.Н.Ф.*** *Взаимосвязь саморегуляции поведения и продуктивной социальной включенности подростков*	15
5	***Колесник К.А., Ешенкулова Э.Б., Мауленбердиева Г.Б.*** *Кибербуллинг как современная социально-психологическая проблема*	28
6	***Эргашев.П.С.*** *Об одном подходе к измерению психологической зрелости*	31
7	***Qodirov U.D.*** *Konsagvin nikohlarning ijtimoiy-psixologik determinantlari*	34
8	***Bafayev M.M.*** *G.Bardiyerning tolerantlik uch kompleksli modeli tavsifi*	39
9	***Narmetova Y.K.*** *Psixosomatik kasalliklarida bemorning psixoemosional xususiyatlari va hayot sifatining o'zaro bog'liqligi*	41
	1-sho'ba: Zamonaviy psixologiyada shaxs rivojlanishi va integrativ yondashuvlar	
1	***Ибрагимова.Г.Н*** *Проблемы социально-психологической адаптации студентов в высшем учебном заведении*	46
2	***Тиллашайхова Х. А*** *Особенности социально-психологического благополучия студентов различных профилей подготовки*	51
3	***Nazarov.A.M.*** *Yangi o'zbekistonda yoshlar salohiyatini rivojlantirish orqali innovatsion jamiyat barpo etishning ustuvor yo'nalishlari*	56
4	***Esanov M. X.*** *Oliy ta'limda pedagogik kasbiy tayyorgarlikning psixologik modellari*	61
5	***Mirzayeva F.O., Farxodova D.M.*** *Bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda psixologik omillarning o'rni*	67
6	***Тиллашайхова Х. А , Ахмадова.Д*** *Влияние детско-родительских отношений на развитие ребенка*	70
7	***Жолдошбаев Д. А.*** *Особенности психологической защиты девиантных подростков*	74
8	***Жолдошбаева А.Д.*** *Формирование социально приемлемого поведения у детей младшего школьного возраста*	77
9	***Кадирова Н. А.*** *Адаптация высшего образования к условиям цифровизации*	80
10	***Садикова Р. С.*** *Оиладаги зўравонликнинг фарзанд тарбиясига психологик таъсири*	84
11	***Медетова Р.М., Пирматова М.С.***	87

	Локус контроля в процессе обучения и учебная самостоятельность школьников	1605
58	***Eshonqulova G.A., Sobirjonova D.O‘.*** *Inson qadri va nafs tarbiyasi - zamonaviy psixologik inqirozlarning yechimi sifatida*	*1608*
59	***Kasimova M.M., Musaxodjayeva B.G.*** *Kasbiy moslashuvning psixologik asoslari*	*1613*
60	***Mexmonova G.B.*** *Pedagog shaxsining kasbiy stressga moslashuvi va emotsional barqarorlik omillari*	*1615*
61	***Mussoyeva Matluba Sattorovna*** *O‘smirlar orasida suitsidni oldini olishning o‘ziga xos xususiyatlari*	*1618*
62	***Asadullayev N.R., Samadova Z.O.*** *Inson - mashina tizimining zamonaviy jamiyatdagi o‘rni*	*1622*
63	***Аскарова Г.О., Нуруллаев А.Х.*** *Обращение к социальному окружению как копинг-стратегия личности*	*1623*
64	***Abdullayeva D.Q.*** *Internet-agressiyaning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari*	*1626*
65	***Abdullayeva R.M., Djurayeva.M.T, Jumanazarova A.A.*** *Shaxs salomatligi bosqichlarining psixologik omillari*	*1632*
66	***Аскарова Г.О., Абдуллина А.М.*** *Роль семьи, ближайшего окружения и интернета в формировании суицидальных мыслей у девочек- подростков*	*1636*
67	***Asadullayev N.R., Urazshayev A.B.*** *O‘quvchining kasbga bo‘lgan axloqiy motivlari*	*1640*
68	***Xolmatova M.B.,Turdaliyev M.*** *Stress sharoitida ruhiy salomatlikni saqlash: amaliy va samarali usullar*	1646
69	***Ergasheva I.E.*** *Storytelling texnikasining rivojlanishiga hissa qo‘shgan yevropalik va o‘rta osiyolik olimlarning hozirgi ta’lim sohasidagi o‘rni*	*1651*
70	***Asadullayev N.R., Salimova H.I.*** *Maktabgacha ta’lim tarbiyachisi pedagogik faoliyatining o‘ziga xosligi*	*1654*
71	***Abdirayimova Z.Sh.*** *Integrativ yondashuv asosida shaxsning emotsional xotirasini korreksiya qilish usullari*	*1658*
72	***Radjabov A.A.*** *Jamiyatda stress va uning psixologik oqibatlari*	*1660*
73	***G‘aniyeva X.A., Rasuljonova G.Sh.*** *Raqamli davrda mutaxassislar tomonidan xodimlar tanlashning psixologik xususiyatlari*	*1664*
74	***Toshqo‘ziyeva D.S*** *Masofaviy ta’limning mohiyati va rivojlanish tendensiyalari*	*1667*
75	***Turg‘unova G.B., Achilova S.Y.*** *Kasbga ko‘nikishning psixologik asoslari*	*1670*
76	***Haydarova S.S.*** *Talaba shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy statusi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorligi natijalari*	*1673*
77	***Jumanazarova A.A.***	*1676*